

AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi (23.07.2024 y.)

AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi **2024-yil 23-iyul kuni, soat 10:00** da masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali o'tkazildi.

Yig'ilishga bank Kuzatuv kengashi Raisi Sh.Shermatov raislik qildi. Yig'ilishda bank aksiyadorlari, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolari, Bosh bankning departament, boshqarma va bo'lim boshliqlari ishtirok etdi.

Yig'ilishda quyidagi masalalar kun tartibiga qo'yildi:

1. AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
2. AT «Aloqabank»ning yangi tarkibda bank Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash.
3. «Shanghai Construction Group Co., LTD» (XXR) va AT «Aloqabank» o'rtasida 2019-yil 28-iyunda tuzilgan ALOQA/SCG-001-sonli qurilish pudrat shartnomasiga qo'shimcha kelishuv tuzish.
4. AT «Aloqabank»ning e'lon qilingan aksiyalarining yangi sonini belgilash va tasdiqlash.
5. AT «Aloqabank» Ustaviga o'zgartirish kiritish.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar soni **6 605** ta, ularga tegishli bo'lgan jami ovoz beruvchi aksiyalar soni **9 833 141 874** donadan iborat.

Elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali ro'yxatdan o'tkazilgan ovoz beruvchi aksiyalar soni **9 035 258 666** tani tashkil etdi. Ro'yxatdan o'tkazilgan ovoz beruvchi aksiyalar jami ovoz beruvchi aksiyalarning **91,89** foizini tashkil etdi.

Umumiy yig'ilish o'tkazish uchun kvorum mavjud deb hisoblandi.

Kun tartibiga qo'yilgan masalalar bo'yicha ovoz berish natijalari quyidagi jadvalda berilmoqda:

Kun tartibi masala	Yoqlagan		Qarshi		Betaraf	
	ovozlar soni	foiz	ovozlar soni	foiz	ovozlar soni	foiz
1. AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.	9 035 258 666	100.00	-	-	-	-
2. AT «Aloqabank»ning yangi tarkibda bank Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash:						
Shermatov Sherzod Xotamovich	9 956 630 340					
Umarov Olimjon Muxamadjanovich	8 683 763 634					
Umrzaqov Ilxomjon O'rinboy o'g'li	8 683 763 634					
Yuldashev Faxriddin Turakulovich	8 683 966 567					
Xaytmetov Rustam Maxkamdjanovich	8 683 763 634					
Lutfullayeva Dilnoza Rovshan qizi	8 704 307 096					
Ishanxodjayev Asror Aslanovich	8 683 763 643					
Mansurov Rustam Pulatovich	10 549 218 294					
Xasanov Nazirjon Nabijonovich	8 683 763 643					
3. «Shanghai Construction Group Co., LTD» (XXR) va AT «Aloqabank» o'rtasida 2019-yil 28-iyunda tuzilgan ALOQA/SCG-001-sonli qurilish pudrat shartnomasiga qo'shimcha kelishuv tuzish	8 953 712 134	99.09746	740	0.00001	81 545 792	0.90253
4. AT «Aloqabank»ning e'lon qilingan aksiyalarining yangi sonini belgilash va tasdiqlash.	9 032 519 432	99.97	2 739 234	0.03	-	-
5. AT «Aloqabank» Ustaviga o'zgartirishlar kiritish	9 032 519 432	99.97	2 739 234	0.03	-	-